



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR XVI ASR BUNYODKORI VA
DAVLATCHILIK ANʼANALARINING DAVOMCHISI**

Ilmiy rahbar:

XOSHIMOV SOYIBJON

Mutalipova Odinaxon Akramjon qizi

Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

E-margubamusayeva702@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, siyosiy faoliyati hamda Boburiylar davlatining tashkil topish jarayoni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, boburning davlatchilik tamoyillari, adolat kansepsiyasi va maʼnaviy merosi tarixiy manbalar asosida yoritiladi.

□□ Boburnoma□□ asari XV-XVI asrlar tarixini oʻrganishda muhim birlamchi manba sifatida baholanadi.

Kalit soʻzlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburiylar davlati, Temuriylar, davlatchilik siyosati, adolat tamoili, Boburnoma.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются жизнь и политическая деятельность Захириддина Мухаммада Бабура, процесс образования государства Бабуридов, а также его вклад в развитие государственности и духовного наследия. Особое внимание уделяется произведению “Баburname” как важнейшему источнику XV-XVI веков.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, государство Бабуридов, Темуриды, государственность, “Баburname”.

ABSTRACT

This article analyzes the life and political activity of Zahiriddin Muhammad Babur, the formation of the Mughal state, and his contribution to statehood and spiritual heritage. Special attention is given to the □□ Baburnama□□ as an important primary historical source of the 15th- 16th centuries.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, Mghal state, Timurids, statehood, Baburnama



Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur Markaziy Osiyo va Hindiston tarixini oʻzaro bogʻlab turgan buyuk tarixiy shaxsdir. Biz uning faoliyatini taxlil qilar ekanmiz, u nafaqat sarkarda va davlat arbobi, balki nozik didli shoir, tarixchi va maʼrifatparvar sifatida ham jahon tamaddunida muhim oʻrin egallaydi. Bobur shaxsiyati XV-XVI asr boshlarida Temuriylar davlati inqirozi sharoitida shakillandi.

Manbalarning taxlili boʻyicha bu davrda Temuriylar oʻrtasida ichki kurashlar, markazlashgan hokimyatning zaiflashuvi hamda Shayboniylar bosimi Movaraunnahr siyosiy hayotini izdan chiqargan edi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda Bobur siyosiy maydonga kirib keldi. [1]

I BOB. BOBURNING NASL-NASABI VA SHAKILLANISH MUHITI

Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida tugʻilgan. U otasi tomonidan Amir Temur avlodi, onasi tomonidan esa Chingizxon nasliga mansub edi. Bizning ilmiy taxlilga kora, bu ikki sulola merosining uygʻunligi uning siyosiy daʼvosini qonuniylashtiruvchi omil bolib hizmat qilgan.

Bobur 1494-yilda, 12-yoshida Fargona taxtiga oʻtirdi. Boburning siyosiy faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, uning davlat boshqaruvida adolat tamoiliga alohida etibor qaratganini koʻrish mumkin. {Sulaymonov. Z.M. Bobur-shoir va mutafakkir. Toshkent: Gʻofur Gʻulom nomidagi nashriyot. 1996-yil. 9-21 betlar.}

II BOB. MOVAROUNNAHR UCHUN KURASH VA SIYOSIY TAJRIBA

Boburning Samarqand uchun olib borgan kurashlarini tahlil qilsak, uning siyosiy faoliyatida muhim bosqich bolgani yaqol namoyon boʻladi. Shayboniylar bilan toʻqnashuvlar natijasida Movarounnahrni saqlab qolish imkoni bolmagach, u avval Qobulda mustahkamlandi (1504), soʻng Hindistonga yoʻl oldi.

1526-yildagi Panipat jangidagi gʻalaba Boburning siyosiy strategyasi va harbiy mahorati natijasi boʻlib Hindistonda yangi sulola barpo barpo etilishiga zamin yaratdi. Boburga doir ilmiy manbalarni tahlil qilganimizda siyosiy faoliyatida quyidagi tamoyillar kuzatiladi:

Markazlashgan boshqaruv

Harbiy intizom

Diniy bagʻrikenglik

Adolatli soliq siyosati shular jumlasidandir.

Z.M. Boburning - Men dunyoda koʻrgan va eshitgan narsalarimni oddiy va sodda soʻz bilan yozdim. Harbir hodisa va odamning tabiyati menga oʻrnak boʻldi. Har ishda adolat va insofni qoʻldan bermaslik lozim, chunki zulm bilan barpo etilgan saltanat uzoq turmaydi. {Boburnoma, Toshkent: Yulduzcha, 2014-



yil. 50-bet.}

III BOB. BOBURIYLAR DAVLATI VA DAVLATCHILIK TAMOYILLARI

Biz bu ilmiy maqola orqali Bobur asos solgan davlat Hind va Turk-islom madanyatlari uygʻunligini taminlab berganini taxlil qilamiz. Keyingi hukimdorlar-Humoyun, Akbar, Jahongir va shohjahon davrida boburiylar davlati yanada mustahkamlandi. Bizning ilmiy taxlilga kora, Boburning davlatchilik kansepsiyasida adolat markaziy oʻrin tutganini koʻrishimiz mumkin. U hokimyatni zulm emas, qonuniylik va insof asosida yuritish zarurligini taʼkidlaydi. Bu gʻoya unung asarida ham aks etgan. {B.Ahmedov. Oʻzbekiston tarixi.-Toshkent: Fan nashryoti, 2009-yil 168-172 bet.}

IV BOB. BOBURNING ADABIY VA TARIXIY MEROSI.

Boburning eng muhim asari *Boburnoma* hisoblanib, ushbu asar XV-XVI-asrlar tarixini oʻrganishda be qiyos birlamchi manba sifatida baholanadi.

Aarning tahliliga kora:

Siyosiy voqealar

Shaharlar tasnifi

Tabiiy geografik sharoit

Urf-odat va anʼanalar

Tarixiy shaxslar tasnifi

Ilmiy aniqlik bilan yoritib berilganligi bilam xam qimmatlidir. Asarda Bobur oʻz xatolarini xam tan olib, kelgusida u yoʻl qoʻygan xato va kamchiliklarni takrorlamaslikni takidlab oʻtgan va vatan sogʻinchi ham sezilarli darajada yoritilgan. Bobur lirik shoir sifatida ham oʻzbek mumtoz adabyotiga katta hissa qoʻshgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat qudratli sarkarda, balki chuqur tafakkur egasi boʻlgan davlat arbobidir. U asos solgan Boburiylar davlati Sharq va Hind sivilizatsiyalari oʻrtasida madaniy koʻprik vazifasini bajardi.

Boburning merosi tarixiy xotira va milliy oʻzlikni anglashda beqiyos manba boʻlib qolmoqda. { Z.M.Bobur. *Boburnoma*-Toshkent: Yulduzcha nashyot, 2014-yil 45-78 betlar.}

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR

1. Bobur Z.M. *Boburnoma*- Toshkent: Yulduzcha, 2014.
2. Ahmedov B. *Oʻzbekiston tarixi*.- Toshkent: Fan, 2009.
3. Karimov N. *Oʻzbek mumtoz adabyoti tarixi*.- Toshkent: Fan, 2009.
4. shamsutdinov R. va boshq. *Vatan tarixi*. 1-kitob.- Toshkent: Sharq, 2010.